



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-116-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-son Farmonining tumandagi ijrosi bo‘yicha “Surxondaryo suv ta’minot” MChJ Angor tuman bo‘limi boshlig‘i I.Raximovning hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan “Surxondaryo suv ta’minot” MChJ Angor tuman bo‘limi boshlig‘i I.Raximovning hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan “Surxondaryo suv ta’minot” MChJ Angor tuman bo‘limi boshlig‘i I.Raximovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

### **2. “Surxondaryo suv ta’minot” MChJ tuman bo‘limi boshlig‘i I.Raximovga:**

- bir oy muddatda suv ta’minoti va oqova suv xizmati sohasida ma’lumotlar bazasi shakllantirish, unga ko‘ra har bir mahalla kesimida suv bilan ta’minlangan aholi, abonentlar, shu jumladan hisoblagich o‘rnatilgan abonentlar soni, suv yo‘qotish darajasi, pul undiruv, mavjud debitor va kreditor qarzdorlikni qisqartirish rejasini ishlab chiqish;

- ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv sohasida investitsiya loyihalarini saralash,

amalga oshirish hamda ularning natijadorligini monitoring qilish bo'yicha loyiha takliflarini Xalq deputatlari shahar Kengashida muhokama qilish uchun kiritish;

- loyihaning bajarilishi holatini muntazam ravishda tuman Kengashi deputatlari bilan joylarga chiqqan holda monitoringini amalga oshirish;

- mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan joriy yilning ikkinchi choragi yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**